



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,  
13-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish .....	10
<a href="#">Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna</a>	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
<a href="#">Boltayeva Go'zal Komilovna</a>	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi .....	21
<a href="#">D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev</a>	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish .....	25
<a href="#">Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	30
<a href="#">Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi</a>	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
<a href="#">Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi</a>	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar .....	39
<a href="#">Axmedov Jaloliddin Oribovich</a>	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
<a href="#">Baxramova Malika Muzaffarovna</a>	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari .....	47
<a href="#">Choriyeva Zarina Anvarbek qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
<a href="#">D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva</a>	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish .....	53
<a href="#">Djurayeva Nargiza Kudratillayevna</a>	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
<a href="#">Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna</a>	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
<a href="#">Ergasheva Mehriyona</a>	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
<a href="#">G'ayratova Mohidil Zafar qizi</a>	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi .....	69
<a href="#">Maksetova Nurjamal Kuatovna</a>	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish .....	72
<a href="#">Malikova Xurshida Ikramovna</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
<a href="#">Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi</a>	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
<a href="#">Muxammadova Ozoda Muzrabovna</a>	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
<a href="#">N. G. Pulatova</a>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari .....	85
<a href="#">Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna</a>	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari .....	89
<a href="#">Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna</a>	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	



Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari .....	193
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни .....	197
<i>Журабаев Абдукарим Маматкулович</i>	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема .....	200
<i>Зокиржонова Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе .....	203
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar .....	205
<i>Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich</i>	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка .....	207
<i>Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна</i>	

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA ORFOGRAFIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

**D. Teshaboyev**

FarDU professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

**M. Sotvoldiyeva**

FarDU 4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Orfografik savodxonlik tushunchasi, uning mazmuni va boshlang'ich ta'lim jarayonidagi o'rnini yoritilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida orfografik savodxonlikni rivojlantirish usullari ko'rib chiqilgan hamda o'quvchilarda uchraydigan asosiy orfografik xatolar tahlil qilingan. Maqola ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchilar hamda pedagogika yo'nalishi talabalari uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** orfografik savodxonlik, boshlang'ich sinf, yozma nutq, imlo qoidalari, pedagogik asoslar, fonetik tahlil, grammatik ko'nikma, xatolar tahlili, lingvistik kompetensiya, ta'lim samaradorligi.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations of developing orthographic literacy in primary school students. The concept of orthographic literacy, its content, and its role in the primary education process are discussed. In addition, methods for developing orthographic literacy based on the scientific views of both foreign and local scholars are examined, and the main orthographic errors made by students are analyzed. The article has scientific novelty and practical significance and may be useful for teachers and students in the field of pedagogy.

**Key words:** orthographic literacy, primary school, written speech, spelling rules, pedagogical foundations, phonetic analysis, grammatical skills, error analysis, linguistic competence, educational effectiveness.

**Аннотация:** В данной статье анализируются теоретические и педагогические основы формирования орфографической грамотности у учащихся начальной школы. Раскрыты понятие орфографической грамотности, её содержание и роль в процессе начального образования. Также рассмотрены методы развития орфографической грамотности на основе научных взглядов зарубежных и отечественных учёных, проанализированы основные орфографические ошибки, допускаемые учащимися. Статья обладает научной новизной и практической значимостью и может быть полезна для учителей и студентов педагогических специальностей.

**Ключевые слова:** орфографическая грамотность, начальная школа, письменная речь, правила правописания, педагогические основы, фонетический анализ, грамматические навыки, анализ ошибок, лингвистическая компетенция, эффективность обучения.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv sharoitida jamiyatda savodli, mustaqil fikrlay oladigan va yozma nutqini to'g'ri ifodalaydigan shaxsni tarbiyalash ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda boshlang'ich ta'lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan ushbu davrda o'quvchilarning yozma nutqi va savodxonligi shakllanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinfdagi orfografik savodxonlik yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, yuqori sinflarda ham o'quvchilar yozma ishlarida ko'plab imlo xatolariga yo'l qo'yadilar. Bu holat o'quvchilarning o'z fikrini yozma shaklda to'liq va aniq ifodalashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslarini o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.



### Orfografik savodxonlik tushunchasi va mazmuni

Orfografik savodxonlik – bu o'quvchilarning so'z va gaplarni amaldagi imlo qoidalariga muvofiq to'g'ri yozish, yozma nutqda xatolarga yo'l qo'ymaslik hamda imlo qoidalarini ongli ravishda qo'llay olish malakasidir. U yozma nutq madaniyatining muhim ko'rsatkichidir.

Boshlang'ich sinfda orfografik savodxonlik fonetik, grammatik va leksik bilimlar asosida shakllanadi. O'quvchilar tovush va harf o'rtasidagi munosabatni tushuna boshlaydi, so'z tuzilishini o'rganadi va imlo qoidalarini amaliy mashqlar orqali o'zlashtiradi.

### Orfografik savodxonlikning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati

Boshlang'ich sinfda shakllangan orfografik ko'nikmalar keyingi ta'lim bosqichlarida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri yozish malakasi:

- yozma nutqini rivojlantiradi;
- fikrni aniq va izchil ifodalashga yordam beradi;
- tilga e'tibor va hurmatni oshiradi;
- mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuning uchun ona tili darslarida orfografik savodxonlikka alohida e'tibor qaratish lozim.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

L.S.Vygotskiy yozma nutqni tafakkur rivoji bilan uzviy bog'liq deb hisoblaydi. Unga ko'ra, boshlang'ich yoshda shakllangan savodxonlik keyingi bilimlarni o'zlashtirishda muhimdir.

A.A.Leontyev esa yozma nutqni egallash jarayonida imlo qoidalarini ongli ravishda o'zlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Mahalliy olimlar X.G'ulomova, S.Matchonov va R.Yo'ldoshev esa boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limida orfografik savodxonlikni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqanlar va mashq hamda takrorlashning samaradorligini ilmiy asoslab berganlar.

### Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan orfografik xatolar tahlili (1-4-sinf ona tili darsliklari misolida)

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma ishlarini o'rganish natijasida, ular orasida ayrim orfografik xatolar keng tarqalganligi aniqlanadi. Eng ko'p uchraydigan xatolar quyidagilardir: tovush va harflarni to'g'ri farqlay olmaslik, qo'shimchalarni noto'g'ri yozish, so'zlarni qo'shib yoki ajratib yozishda xatolar va unli hamda undosh tovushlarni almashib yozish.

1-sinf darsligida o'quvchilarga tovush va harf tushunchalari, so'zlarni bo'g'inlarga ajratish, tovushlarni aniqlash bo'yicha mashqlar beriladi (masalan, "ona", "bola", "daraxt" so'zlari bilan ishlash). Shu bilan birga, ba'zi o'quvchilar yozishda b - p, d - t yoki o - u tovushlarini farqlashda qiyinchilikka duch kelishadi.

2-sinf darsliklarida ko'plik va egalik qo'shimchalari bilan ishlashga e'tibor qaratiladi (masalan, "kitoblar", "o'quvchim"). Biroq o'quvchilarning bir qismi qo'shimchalarni unutib qoladi yoki noto'g'ri yozadi, bu esa grammatik bilimlarning hali mustahkam emasligini ko'rsatadi.

3-sinf darsliklarida so'zlarni qo'shib va ajratib yozish qoidalari kiritilgan. Shu bosqichda ba'zi o'quvchilar "har kuni" so'zini "harkuni", "ota-ona" so'zini "ota ona" shaklida yozishadi. Bu, ularning qoidalarni ongli ravishda qo'llashga hali o'rganmaganligini bildiradi.

4-sinf darsliklarida esa murakkabroq imlo qoidalari o'rgatiladi. Ushbu bosqichda o'quvchilar "kelip" o'rniga "kelib", "borup" o'rniga "borib" kabi xatolarga yo'l qo'yadilar, bu esa fonetik va grammatik bilimlarning yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlar va nazariy tushunchalar orfografik savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq, bu bilimlarni muntazam mashq va takrorlash orqali mustahkamlash, hamda xatolarni tahlil qilish orqali ishlash muhimdir. Shu yo'l bilan o'quvchilarda yozma nutq madaniyati va to'g'ri yozish ko'nikmalari samarali rivojlanadi.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirish masalasi nazariy-pedagogik jihatdan tahlil qilinib, uning yozma nutq rivojidagi o'rni asoslab berildi.

Maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, undagi xulosalar va tavsiyalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari, pedagogika yo'nalishi talabalari hamda metodistlar uchun foydali bo'lib, ona tili darslarida qo'llanishi mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirish jarayoni faqatgina imlo qoidalarini yod oldirish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi qoidani bilgan taqdirda ham uni yozma nutqda ongli ravishda qo'llay olmasligi mumkin. Demak, orfografik savodxonlik bilim, ko'nikma va malakaning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi.

Nazariy manbalarda ta'kidlanganidek, yozma nutq tafakkur jarayoni bilan chambarchas bog'liq. O'quvchi so'zning yozilishini to'g'ri qo'llashi uchun uning fonetik tuzilishini, grammatik shaklini va ma'nosini tushunishi zarur. Shu bois orfografik savodxonlikni rivojlantirishda fonetik tahlil, morfologik ajratish, so'z yasash elementlari bilan ishlash samarali natija beradi.

Shuningdek, dars jarayonida xatolar ustida ishlash alohida ahamiyat kasb etadi. Xatoni shunchaki tuzatish emas, balki uning sababini aniqlash va o'quvchiga tushuntirish orqali mustahkam bilim hosil qilish mumkin. Masalan, jarangli va jarangsiz undoshlarning almashishi bilan bog'liq xatolar fonetik eshitish qobiliyatining yetarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi. Bunday holatda ko'proq og'zaki mashqlar va talaffuz ustida ishlash maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar - interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, test topshiriqlari va ijodiy yozma mashqlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda imlo qoidalarini ongli o'zlashtirishga yordam beradi. Orfografik savodxonlikni shakllantirish jarayoni izchil va tizimli tashkil etilgandagina samarali bo'ladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf bosqichida orfografik savodxonlikni tizimli ravishda shakllantirish o'quvchilarning yozma nutq sifati va umumiy savodxonlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Imlo qoidalarini nazariy tushuntirish bilan bir qatorda ularni amaliy mashqlar orqali mustahkamlash o'quvchilarda barqaror ko'nikmalar hosil qiladi.

Boshlang'ich sinflarda muntazam diktantlar, ko'chirib yozish mashqlari, tahliliy yozuv ishlari hamda xatolar ustida ishlash metodikasi qo'llanilganda o'quvchilarning imlo xatolari sezilarli darajada kamayadi. Ayniqsa, tovush-harf munosabatini chuqur anglash va qo'shimchalarni to'g'ri qo'llash bo'yicha olib borilgan mashqlar samarali natija beradi.

Shuningdek, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan o'yinli va interfaol mashg'ulotlar ularning yozishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda yozma nutq madaniyatini shakllantiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, orfografik savodxonlikni boshlang'ich sinfdanoq puxta va ilmiy asoslangan metodika asosida shakllantirish o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni rivojlantirish ta'lim jarayonining ajralmas va muhim qismi hisoblanadi. Aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilar to'g'ri yozish, imlo qoidalarini ongli qo'llash va yozma nutqda xatolarga yo'l qo'ymaslik ko'nikmalarini egallaydilar. Ushbu ko'nikmalar esa keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qish va bilimlarni mustahkamlash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Maqolada orfografik savodxonlik tushunchasi nazariy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilindi va uning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati yoritildi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida yozma savodxonlikni shakllantirishning muhim jihatlari ko'rib chiqildi va boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan asosiy xatolar misollar orqali tahlil qilindi.

Bundan tashqari, orfografik savodxonlikni rivojlantirishda tizimli yondashuv, izchillik, mashq va takrorlashning ahamiyati ta'kidlandi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni ularning yozma nutqini samarali rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, maqolada keltirilgan xulosalar va ilmiy mulohazalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari va pedagogika yo'nalishi talabalari uchun amaliy metodik qo'llanma sifatida foydalanishga yaroqlikdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent, 2008.
2. G'ulomova X. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2018.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent, 2015.
4. O'zbek tili imlo qoidalari. - Toshkent, 2020.
5. Boshlang'ich ta'lim uchun Davlat ta'lim standarti. - Toshkent.
6. Matchonov S. Ona tili ta'limida zamonaviy yondashuvlar. - Toshkent, 2017.
7. Выготский Л. С. Речь и мышление. – Москва: Педагогика, 1982. - 287 с.
8. www.pedagog.uz
9. www.ziynet.uz

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.